




**KONSTITUTSIYA – MAMLAKATIMIZDA AMALGA
OSHIRILAYOTGAN DEMOKRATIK ISLOHOTLAR
POYDEVORI**

Qosimov Muhammaddiyor Xayrullo o'g'li

O'zbekiston davlat jahon tillari universiteti, Xalqaro jurnalistika
fakulteti, "Xalqaro munosabatlar" yo'nalishi

2 – bosqich talabasi

qosimovm020@gmail.com

<https://doi.org/10.5281/zenodo.21952900>

ARTICLE INFO

Qabul qilindi: 10-avgust 2026 yil
Ma'qullandi: 11-avgust 2026 yil
Nashr qilindi: 15-avgust 2026 yil

KEY WORDS

*Demokratiya, Konstitutsiya,
inson huquqlari, OAV, "Xabeas
korpus", "Miranda qoidalari".*

ABSTRACT

Ushbu maqolada Yangi O'zbekiston Konstitutsiyasining g'oyalari, milliy qadriyatlarimiz, adolatli fuqarolik jamiyati, demokratik huquqiy davlat qurish, bozor munosabatlariga o'tish yo'llari, Yangi Konstitutsiyamizning bosh yo'nalishi – insonni va uning hayotini ulug'lash ekanligi, inson va uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini hamda boshqa daxlsiz huquqlari oily qadriyat hisoblanishini yoritishga bag'ishlanadi.

KIRISH

Mustaqil O'zbekistonning Yangi Konstitutsiyasining qabul qilinishi ayni milliy qadriyatlarimizni, adolatli fuqarolik jamiyati, demokratik huquqiy davlat qurish, bozor munosabatlariga o'tish yo'llarini belgilab bermoqda. Konstitutsiyaning muqaddimasida O'zbekiston xalqi yagona ekanligi, inson huquqlariga va davlat suvereniteti prinsiplariga sodiqligini, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatni anglagan holda tarixiy, milliy qadriyatlarimizga tayanib, shuningdek xalqaro huquq sohasidagi umume'tirof etilgan prinsiplar asosida insonparvar demokratik huquqiy davlatni barpo etish maqsadida ushbu Konstitutsiyani qabul qilganligi e'tirof etilgan. Ushbu o'zgarishlar zahirida mustaqilligimizni yanada asrab-avaylash va mustahkamlash, kelajak avlodlarga ozod va erkin Vatan qoldirish, xalq manfaatlari ko'zlangan islohotlar yo'lidan ortga qaytmaslik, qonun va adolat ustuvorligi, insonga e'tibor va g'amxo'rlik kabi muhim qadriyatlar mujassam bo'lib, ular davlatchilikning tamal toshlari sifatida mustahkamlanmoqda.

Mamlakatimizning uzoq muddatli taraqqiyoti, xalqimizning ertangi farovon hayoti uchun mustahkam huquqiy asos hamda ishonchli kafolat sifatida O'zbekiston "suveren, demokratik, huquqiy, ijtimoiy va dunyoviy davlat" ekanligi hamda ushbu prinsipial qoidalarni o'zgartirish mumkin emasligi alohida belgilab qo'yilmoqda.

Davlatning asosiy qonuni bo'lmish – Konstitutsiya uning fuqarolarga beradigan huquqlari va erkinliklarini himoya qiluvchi qomusdir. Konstitutsiya bu davlat hokimiyatini vazifalari va maqsadlarini belgilab beruvchi va fuqarolarning huquqiy imkoniyatini himoyalovchi qonun asoslarini yaratadi. Bu barcha fuqarolar uchun adolat va tenglik qoidalarini belgilaydi, jamiyat hayotidagi turli xil sohalarida adolatsizlik va tengsizlik qoidalarini bekor qiladi. Konstitutsiyani himoya qilish va uning qoidalarini jamiyatga tadbqiq qilish, unga rioya qilish jamiyat va davlat rivoji uchun muhim ahamiyatga ega.

Konstitutsiyaning muqaddimasida O'zbekiston xalqi: inson huquqlariga va davlat suvereniteti g'oyalarga sodiqligini tantanavor e'lon qilib, hozirgi va kelajak avlodlar oldidagi yuksak mas'uliyatni anglagan holda tarixiy, milliy qadriyatlarimizga tayanib, shuningdek xalqaro huquq sohasidagi umume'tirof etilgan prinsiplar asosida insonparvar demokratik huquqiy davlatni barpo etish maqsadida ushbu Konstitutsiyani qabul qilganligi e'tirof etilgan. Darhaqiqat, mustaqillik tufayli vujudga kelgan Qomusimiz bizga tilimizni, dinimizni, tariximizni, ma'naviyatimizni, insoniy huquqlarimizni qaytarib berdi va ularni o'zining hayotbaxsh normalarida mustahkamlab qo'ydi. Shu bilan birga u siyosiy qadriyatlarimizni-davlat hokimiyatini boshqarishdagi xalqning ishtirokini ta'minlab berdi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Yangilangan Konstitutsiyamizda kambag'allikni qisqartirish, bandlikni ta'minlash, ishsizlikdan himoya qilish bo'yicha davlat o'ziga qator yangi majburiyatlar olishi belgilangan. Bu vazifalarning zahirida yangilangan Konstitutsiyamizda takidlangan "Ijtimoiy davlat"ning ro'li va o'rni aks etgan. Umuman davlatning ijtimoiy majburiyatlariga doir normalar uch barobarga oshdi. Masalan, 2 million 200 ming ehtiyojmand oilalar davlatdan moddiy yordam olishini kafolatlaydi. Bu jami oilalarning 25 foiziga to'g'ri keladi, ularga har yili 11 trillion so'm ajratiladi. [1] Ilk marotaba davlat zimmasiga aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining hayoti sifatini oshirish, nogironligi bo'lgan shaxslarning jamiyat va davlat hayotida to'laqonli ishtirok etishi va o'z huquqlarini amalga oshirishi uchun shart-sharoitlar yaratish choralari ko'rish majburiyati yuklandi.

Inson huquq va erkinliklarini ta'minlash – davlatning oliy majburiyati etib belgilanmoqda. Inson va davlat organlari o'rtasidagi yuzaga keladigan ziddiyatlar va noaniqliklar inson foydasiga talqin qilinishi, hech kim insonga uning roziligisiz qonunchilikda belgilanmagan majburiyat yuklatilishi mumkin emasligi, huquqiy ta'sir choralari qonuniy maqsadga erishish uchun yetarli va mutanosib bo'lishi kerakligi belgilanmoqda. Ushbu qoidalar inson huquqlari ustuvorligini ta'minlaydi, davlat idoralarining o'z vazifalarini inson huquqlariga rioya qilgan holda amalga oshirishda mas'uliyatini oshiradi hamda insonga me'yoridan ortiq huquqiy ta'sir choralari qo'llanilishining oldini oladi. Konstitutsiyada insonning shaxsiy huquqlari va erkinliklari kafolati eng ilg'or xalqaro standartlarga muvofiq kuchaytirilmoqda. Xususan, shaxsni sud qarorisiz 48 soatdan ortiq muddat ushlab turilishi mumkin emasligi, ushbu muddat ushlab turish qonuniyligi va asosiligi sidda isbotlanmasa, shaxs darhol ozod qilinishi ("Xabeas korpus" instituti) hamda shaxsni ushlab turish chog'ida uning huquqlari va ushlab turilishi asoslari unga tushunarli tilda tushuntirilishi kerakligi ("Miranda qoidalar"), shuningdek, ayblanuvchi va sudlanuvchilarga o'ziga qarshi ko'rsatma bermaslik, ya'ni "sukut saqlash" huquqi belgilanmoqda. [2] Ushbu qoidalar shaxsiy erkinlik daxlsizligini va insonlarni noqonuniy hibsga olishga yo'l qo'ymaslikni kafolatlaydi. Ilk marotaba yozishmalar, telefon orqali so'zlashuvlar, pochta, elektron xabarlar va boshqa xabarlarni sir saqlash huquqi faqat sudning qaroriga asosan cheklanishi mumkinligi belgilandi. Ya'ni, hozirgi vaqtda ushbu vakolat prokurorga tegishli bo'lib, uning sudlarga o'tkazilishi shaxs daxlsizligi va konstitutsiyaviy huquqlarini ta'minlashda tub burilish bo'ldi. Shaxs qarindoshlarining sudlanganligi asosi bilan huquqlari cheklanishi mumkin emasligi qat'iy belgilanishi inson o'zining yaqinlari yo'l qo'ygan xatolar uchun javob bermasligini ta'minlaydi va o'zini erkin va farovon jamiyatda yashayotganini his qiladi. Uzoq yillar yurtimizning xalqaro imidjiga salbiy ta'sir qilib kelgan majburiy mehnatga to'liq barham berildi. Bolalarning barkamol rivojlanishiga salbiy ta'sir qiladigan har qanday bolalar mehnatining taqiqlanishi Asosiy qonunimizda to'g'ridan-to'g'ri yozib qo'yilayotganligi ushbu salbiy illatni, omilni tarixda qolishi uchun kafolat bo'ladi. [3]

Fuqarolarimizning Konstitutsiyaning 35-moddasida belgilab qo'yilgan vakolatli davlat organlariga, muassasalariga yoki xalq vakillariga ariza, taklif va shikoyatlar bilan murojaat qilish huquqini ta'minlash maqsadida murojaatlarni ommaviy uchrashuvlar orqali qabul qilish jarayoni keng miqyosda amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda

fuqarolarimiz mansabdorlar oldiga emas, balki mansabdor shaxslarning o'zlari xalqimiz oldiga borib, mahallalarda, ular istiqomat qilayotgan hududlarda vujudga kelgan muammolarni echimini topib, ularni ijobiy hal qilib berishmoqda. "Xalq davlat organlariga emas, davlat organlari xalqqa xizmat qilishi kerak" degan prinsip barcha bo'g'indagi rahbarlar faoliyatida asosiy shiorga aylanmoqda.

Konstitutsiyada inson huquq va erkinliklari, farovon va erkin hayotlari sezilarli darajada kengaytirilmoqda. Xususan, konstitutsiyaviy huquqlar doirasi ekologik huquqlar, sog'liqni saqlash, gender tenglik, erkin harakatlanish, turar va yashash joyini erkin tanlash, mamlakatdan chiqish va moneliqsiz qaytish, Internetdan foydalanish, shaxsiy ma'lumotlar himoyasi, oliy ta'lim, bepul yuridik yordam olish, davlat xizmatiga kirishda tenglik, uy-joyga ega bo'lish, undan mahrum etilganda kompensatsiya olish, bank operatsiyalari va hisobvaraqlarining sir saqlanishi, qonunchilikka oid taklif kiritish kabi huquqlar bilan to'ldirilmoqda. [4] Qulay mehnat sharoitlarida ishlash, mehnati uchun adolatli haq olish, dam olish, davlat hisobidan tibbiy yordamning kafolatlangan hajmini olish, shaharsozlik, budjet sohasida jamoatchilik nazoratini amalga oshirish kabi huquqlarning kiritilishi fuqarolarning iqtisodiy va ijtimoiy himoyasini yanada kuchaytiradi. "Inson qadri uchun" tamoyili Konstitutsiyada, qonunlarimizda va davlat idoralari faoliyatida bosh mezon bo'lishi shart. Shu bois, Konstitutsiya loyihasida insonning sha'ni va qadr-qimmati daxlsizdir hamda hech narsa ularni kamsitish uchun asos bo'lishi mumkin emasligi belgilandi. Ma'lumki, huquqiy demokratik davlatning eng muhim shartlaridan biri shaxs manfaatlarining muhofaza qilinishidir. Boshqacha qilib aytganda, davlat davlatligini ko'rsatmoqchi bo'lsa, fuqarolarini o'z muhofazasiga olishi zarur. Binobarin, bosh qomusimizda ham inson, uning hayoti, erki, sha'ni, qadr-qimmati oliy qadriyat sifatida ulug'lanadi.

Oliy ta'lim tashkilotlariga akademik erkinlik berilishi, tanlov asosida davlat hisobidan bepul oliy ma'lumot olinishi, nodavlat ta'lim tashkilotlari qo'llab-quvvatlanishi to'g'risidagi qoidalar yosh avlod hayotini yaxshilash, ularning orzu-intilishlarini ro'yobga chiqarish, zamonaviy mutaxassisliklarni egallagan holda hayotda o'z o'rnini topishi va shaxsiy rivojlanishi uchun imkoniyat yaratadi. Oxirgi olti yilda oliygohlar soni 77 tadan 210 taga, ularga qabul esa, 5 baravarga ortib, talabalar soni 1 millionga, oliy ta'lim qamrovi – 9 foizdan 38 foizga oshdi. Davlat grantlari soni ham 2 baravar ko'payib, 40 mingtaga yetdi, shundan, magistratura uchun – 5 baravar ko'paydi.

Konstitutsiyada yoshlar masalasi alohida "bob" darajasiga olib chiqilishi Yangi O'zbekistonda yoshlar siyosati ustuvor ekanligiga yaqqol ishoradir. Deputatlar aholimizning 18 milliondan ortig'i yoshlar ekanligi, ushbu ko'rsatkich 2040 yilga borib, 25 millionga yetishini hisobga olib, Konstitutsiyaga yoshlar masalasiga alohida bob kiritilayotgani muhim ahamiyatga egaligini alohida ta'kidladilar. [5]

Yangilangan Konstitutsiyada tadbirkorlik faoliyati kafolatlarini kuchaytirish, bozor munosabatlarini rivojlantirish, halol raqobat uchun shart-sharoit yaratish, qulay investitsiyaviy va ishbilarmonlik muhitini ta'minlash, adolatli soliq tizimini yo'lga qo'yish, monopolistik faoliyatni cheklash orqali tom ma'noda erkin bozor iqtisodiyotini shakllantirish uchun barqaror asos yaratilmoqda. Tadbirkorlikka keng yo'l ochilishi hisobiga, so'nggi olti yilda ularning soni 6 baravar oshib, bugungi kunda 2 millionga yetdi. Tushumlari 1 million dollardan oshgan tadbirkorlar 26 mingtaga, 100 million dollarga yetkazganlar esa, 220 taga yetdi. Bu raqamlar fuqarolarning ijtimoiy davlatdagi hayotlari yanada ijtimoiylashayotgani, fuqarolarning hayotlarida yanada erkin, farovon va to'kis bo'layotganini isbotidir.

Konstitutsiyamizda ommaviy axborot vositalari faoliyatining erkinligi, ularning axborotni izlash, olish, undan foydalanish va uni tarqatishga bo'lgan huquqlari kafolatlanmoqda. Chunki, ommaviy axborot vositalari xalqning siyosiy ongini oshirishda, ularning huquq va majburiyatlarini eslatib turuvchi omil sifatida ko'rilmogda. Xalq ovozi va fikrini keng jamoatchilikka, davlat idoralari e'tiboriga olib chiqayotgan ommaviy

axborot vositalari, jurnalistlar faoliyatiga to'sqinlik qilish yoki aralashish javobgarlikka sabab bo'lishi haqidagi qoida Bosh qomusimizda muhrlanayotganligi yurtimizda so'z va axborot erkinligini yanada yuksalishini e'tirof etadi.

Konstitutsiyamizda kiritilgan o'zgartirishlardan yana biri, Qonunchilik palatasining vakolarlari 5 tadan 12 taga ko'paygani alohida o'rinlidir. Ayniqsa, Bosh vazir nomzodi prezident tomonidan barcha siyosiy partiyalar fraksiyalari bilan maslahatlashuvlar o'tkazilganidan so'ng taklif etilish tartibi joriy qilinganini qayd etish joizdir. Shuningdek, Qonunchilik palatasiga faoliyati qoniqarsiz deb topilgan vazirlarni lavozimidan ozod etish bo'yicha Prezidentga taklif kiritish huquqi berildi. Bundan ko'rinib turibiki, faqat ish vazifasini to'g'ri bajargan va ish vazifasiga loyiq personallar qolishini takidlaydi. Oliy Majlis Senati ham ixcham, xalqchil va hududlar manfaatini ifoda etadigan o'rganga aylanmoqda. Buning tasdig'i sifatida senatorlar soni 100 nafardan 65 nafarga tushirilishi va senatning vakolati mutlaq 14 tadan 18 taga ko'payganini ko'rishimi mumkin. [6]

Yangilangan Konstitutsiyada davlat o'z zimmasiga 10 ta muhim ijtimoiy majburiyatni olayotganini ham alohida qayd etish lozim.

- Davlat fuqarolarning bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish choralari ko'radi.
 - Davlat maktabgacha ta'lim va tarbiyani rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratadi.
 - Davlat bepul umumiy o'rta ta'lim va boshlang'ich professional ta'lim olishni kafolatlaydi.
 - Bolalar uchun inklyuziv ta'lim va tarbiya ta'minlanadi.
 - Fuqarolar davlat ta'lim tashkilotlarida tanlov asosida davlat hisobidan oliy ma'lumot olishga haqli.
 - Mehnatga haq to'lashning eng kam miqdori insonning munosib turmush darajasini ta'minlash zarurati hisobga olingan holda belgilanadi.
 - Pensiyalar, nafaqalar va boshqa turdagi ijtimoiy yordamning miqdorlari eng kam iste'mol xarajatlaridan oz bo'lishi mumkin emas.
 - Davlat aholining ijtimoiy jihatdan ehtiyojmand toifalarining hayoti sifatini oshirishga, jamiyat va davlat hayotida to'laqonli ishtirok etishi uchun ularga shart-sharoitlar yaratishga qaratilgan choralarni ko'radi.
 - Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy sohalar obyektlari va xizmatlaridan to'laqonli foydalanishi uchun shart-sharoitlar yaratadi.
 - Davlat nogironligi bo'lgan shaxslarning ishga joylashishiga, ta'lim olishiga ko'maklashadi, ularga zarur bo'lgan axborotni to'sqinliksiz olish imkoniyatini ta'minlaydi. [7]
- Bunday ijtimoiy o'zgarishlar zamirida faqat xalq manfaati yotibdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bir tarafdin yangilangan Konstitutsiya davlatning ijtimoiy majburiyatlarini kengaytirish va mustahkamlash yo'lidagi muhim qadamdir. U inson huquqlari, ta'lim, ijtimoiy himoya va atrof-muhitni himoya qilish kabi sohalarida rivojlanish uchun huquqiy asos bo'ladi. Ushbu harakatlar va majburiyatlarni amalga oshirishda davlat tomonidan aniq va samarali harakatlar talab qilinadi. Bu harakatlarni yanada rivojlantirish va samarasini oshirish uchun fuqarolar o'z haq-huquqlarini va erkinliklarini himoya qilish uchun faol bo'lishlari va davlatning ijtimoiy siyosatiga qiziqish ko'rsatishlari kerak.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, Yangi O'zbekistonning Yangi Konstitutsiyasi erkin va mustaqil fikrlaydigan, uning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etadigan fuqarolarni qo'llab-quvvatlashi, keng miqyosdagi inson huquqlari ta'minlanganligi bilan kundalik hayotimizda dasturulamal bo'lib xizmat qilayotganini ko'rishimiz mumkin. Yangilangan Konstitutsiyamizda yana bir g'oya ilgari surilganligini takidlashimiz mumkin: Konstitutsiya bu qog'ozda yozilgan hujjat emas, balki jamiyatning barqarorligi, adolatlilik va rivojlanishining kalitidir. Konstitutsiyaga rioya qilish barcha fuqarolarning erkin va farovon hayot kechirishi uchun muhimdir. Konstitutsiyaning hayotimizdagi o'rni va ahamiyati nihoyatda kattadir. Rivojlangan demokratik davlatlarda hech bir fuqaro, hech bir shaxs o'z ijtimoiy shaxsiy hayotini, o'z qonuniy manfaatlarini himoya qilishni Konstitutsiyasiz tasavvur eta olmaydi.

Barchamiz kundalik hayotimizda Konstitutsiya belgilab bergan normalarga tez-tez murojaat qilib turamiz. Chunki, aynan Qomusimizdagina insonning haq-huquqlarini himoya qilish ishonchli ravishda kafolatlangan. Shuning uchun Konstitutsiya qoidalarini puxta o'rganish, uni bilish va hurmat qilish zarur.

Yangi O'zbekistonda erkin va mustaqil fikrlaydigan, uning ijtimoiy-siyosiy hayotida faol ishtirok etadigan, o'z so'zini aytishga qodir yoshlarimiz uchun ham bu Qomus kundalik hayotlarida asosiy dasturulamal bo'lib xizmat qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Yangilanayotgan Konstitutsiya: 10 ta demokratik o'zgarish va 10 ta muhim ijobiy majburiyat., 26-aprel, 2023. <https://yuz.uz/uz/news/yangilanayotgan-konstitutsiya-10-ta-demokratik-ozgarish-va-10-ta-muhim-ijobiy-majburiyat>
2. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi URL: <https://lex.uz/docs/-6445145>.
3. PQ-258-son-qarorga-asosan-bir-martalik-moddiy-yordam-kimlarga-beriladi. 1-iyun, 2022. URL: <https://shovothokimiyat.uz/site/view?code>.
4. "Miranda qoidasi" va "Xabeas korpus" institute - huquqlarimizning muhim konstitutsiyaviy kafolati., 23.03.2023. URL:https://uzbekembassy.com.my/uzb/news_press/konstitutsiyaviy_islohotlar/miranda_qoidasi_va_xabeas_korpus_instituti_huquqlarimizning_muhim_konstitutsiyaviy_kafolati.html.
5. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. URL: <https://lex.uz/acts/-20596>.
6. O'zbekistonda o'tgan 7 yil mobaynida oliygohlar soni 77 tadan 210 taga yetkazildi. 24.10.2024. URL: <https://uzreport.news/society/ozbekistonda-otgan-7-yil-mobaynida-oliygohlar-soni-77-tadan-210-taga-yetkazildi>.
7. Yangi tahrirdagi Konstitutsiyada tadbirkorlik faoliyati kafolatlari kuchaytirilmoqda. 28.03.2023. URL: <https://senat.uz/controlactivity/post-581>.
8. Dadasheva, A. A. Public opinion and government evaluation in new Uzbekistan. The American Journal of Interdisciplinary Innovations Research, № 4., 2021. - P.16-19.

INNOVATIVE
ACADEMY